



HUQUQBUZARLIKLAR PRAFILAKTIKASINI REJALASHTIRISH VA AXBOROT TAHLIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

¹ **Shonazarov Mirzabek
Kamolbek o'g'li**
² **Uteпов Dilmurod
Sheraliyevich**

¹ *Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
310-guruh kursanti*
² *Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası
katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Abstract

Ushbu maqolada O'zbekistonda shakllangan huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi, uning faoliyatni rejalashtirish va axborot tahlil qilish tushunchalari, bu borada amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda boshqa davlatlarning horijiy tajribasi yoritib berilgan.

Keywords : Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, Mahalla huquq tartibot maskani, rejim, reja, tahlil.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatining yagona sxemasini ifodalashning zarur sharti bu – rejalashtirish hisoblanadi. Unga ko'ra, rejalashtirish doimo jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rini bajarishning asosiy usullaridan biri bo'lgan. Rejalashtirishning huquqiy tartibni mustahkamlash sohasiga ijtimoiy boshqaruvning boshqa sohalariga nisbatan kechroq kirib kelishini, aftidan, jinoyatchilikni bartaraf etish jarayoni ilgari taxmin qilinganidan murakkabroq va davomliroq chiqqanligi bilan izohlash mumkin. Profilaktika inspektorlari faoliyatini rejalashtirishda axborot manbalarining o'zaro axborot almashishi jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishga qaratilgan muayyan chora tadbirlarni rejalashtirish va axborot tahlilni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ichki ishlar idoralarining faoliyatini rejalashtirish O'zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 24-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarida axborot-tahlil ishini, rejalashtirishni va axborotma'lumot fondini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i talablari asosida amalga oshiriladi. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmati apparatlari tomonidan profilaktika xizmati hodimlarining faoliyatini rejalashtirishning quyidagi turlari mavjud:

- oylik;
- choraklik;
- olti oylik
- yillik.

Shuningdek, ayrim yuridik adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarda rejalarining bir turi – maxsus rejalar ekanligi qayd etiladi.

Ushbu rejalar quyidagi masalalar bo'yicha tuzilishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy, sport va boshqa xil tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha;
- huquqbuzarliklarning oldini olish, huquq-tartibotni muhofaza qilish va nihoyatda keng tarqalgan jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish borasidagi kompleks operatsiyalar bo'yicha;
- guruhlar tomonidan sodir qilinadigan huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha;
- yashiringan va qurollangan jinoyatchilarni qidirish va ushlab bo'yicha;
- olib qochilgan avtotransport vositalarini qidirish bo'yicha;
- davlatlararo, respublika miqyosida, viloyatlararo va tumanlararo tarqalgan og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mintaqalar ichki ishlar idoralarining o'zaro tadbirlarni muvofiqlashtirish bo'yicha;
- favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar yuz berganda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha;
- muayyan ishlar yuzasidan o'tkaziladigan operativ-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari bo'yicha.

Rejalashtirilgan tadbirlarni bajarmayotgan, ularni bajarish muddatini buzayotgan yoki sifatsiz bajarayotgan xodimlarga nisbatan qat'iy choralar ko'riladi. Rejalarga o'zgartishlar kiritish faqat ushbu rejalarini tasdiqlagan rahbar ijozati bilan amalga oshiriladi Prezidentimizning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusi ijrosi bo'yicha ko'plab e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, yoshlar va voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda, jinoyatchilikning kamayishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, «insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug'diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak. Barchamiz birgalikda shu ishga hissa qo'shishimiz kerak».

Rejalashtirish rejalashtirilgan davrda bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlar ro'yxatini belgilashdan boshlanadi. Bu ish organ, bo'linma ishining rejalarini, bo'linmada mavjud bo'lgan maxsus rejalarini, xodim yurituvida bo'lgan ishlar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar rejalarini, yuqori turuvchi boshqaruv sub'ektlarining rejalashtirilayotgan davrda bajarish uchun vazifalar belgilangan buyruqlari va ko'rsatmalarini, xodimning funksional vazifalarini o'rganish asosida bajariladi.

Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularning muammolarini o'rganish va hal etish, haq-huquqlarini himoya qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayni shu maqsadda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan, ichki ishlar organlari tizimida xotin-qizlar bilan ishlash

masalalari bo'yicha inspektor lavozimi joriy etilib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Inspektor-xodimalar joylarda xotin-qizlar bilan uchrashib, ularning muammolarini o'rganib, huquqiy maslahatlar beradi, bandligini ta'minlashda ko'maklashadi, profilaktik hisobda turgan ayollar, huquqbuzarlik va jinoyat qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlar bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar olib boradi. Shu asnoda o'tgan yili ular tomonidan 6.890 nafar xotin-qizlarning ishga joylashishida ko'maklashildi, 5.645 nafariga moddiy-ijtimoiy yordam ko'rsatildi, 1.550 nafari tibbiy dispanserlarga yuborildi, 2009 nafariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini qayta tiklashda, 3121 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'maklashildi, 1241 nafari ta'lim muassasalariga qaytarildi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda uning oldini olish muhim sanaladi. Shu bois ichki ishlar organlarida profilaktik tadbirlarga keng o'rin berilyapti. Ayniqsa, haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» deb e'lon qilinishi joylarda profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, aholi bilan ichki ishlar organlari hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorligini kuchaytirish, o'zaro ochiq muloqot va uchrashuvlarni ko'paytirish imkonini berdi.

Bajariladigan ishlarni va ularga vaqt sarfini tahlil qilganda, mantiqiy, statistik usullardan tashqari, grafika usulidan ham foydalanish mumkin. Statistik usullar yordamida muayyan turdagi ishlarga sarflanadigan vaqtning umumiy ish vaqtidagi ulushi aniqlanadi. Grafika usullaridan foydalanish guruhlashtirish o'tkazish qulay bo'lgan turli xil ishlarni ifodalash uchun shartli belgilarni qo'llash bilan bog'liq.

Ishni hisobga olishning shartli belgilar (shifr) bilan ifodalangan ma'lumotlarini o'rganishda bajariladigan ishlarning tuzilishi, ish kuni (haftasi, oyi)dagi rejalashtirilmagan ishlar ko'proq uchraydigan davrlar, ish vaqti eng ko'p sarflanadigan ishlarning turlari va, aksincha, haddan tashqari kam e'tibor va vaqt sarflanadigan ishlar, ish vaqtining eng kam band bo'lgan davri kabilar yorqin namoyon bo'ladi. Bu va boshqa axborotning yorqin ko'rinishiga lentasifat grafiklar, diagrammalar tuzish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim.

T. 2017-y.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davot ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T. 2017-y.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T. 2021-y.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo'llabquvvatlash va oila institutini mustaxkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'RQ- 2017-yil 2-fevral

5. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014-yil 14-may qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2014. – № 20. – 221-m.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son // 2021-yil 26-mart // URL: [http://www.lex.uz.](http://www.lex.uz;);